O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 27-02-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

231979 - SONLI

Obyekt nomi: “Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Abdulla Qaxxor 6-tor 1-berk va Nukus ko‘chalarida Pastki qavatida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy binolari qurish” ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	MK OFFICE MCHJ
Bosh loyihachi:	"ME`MOR OBOD SERVIS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	tanlov asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	053618

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Hokimining 2019-yil 12-fevraldagi 200-sonli qarori.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2021-yil 15-aprelda berilgan 1726-1726287-16987-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yil 21-iyunda berilgan 1726-1726287-68962-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2024-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.5. «GEO MIR» MChJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2023-yil 11-yanvarda berilgan 01/1709-sonli texnik sharti.

1.7. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ tomonidan 2023-yil 12-mayda berilgan 270/4-1286-sonli texnik sharti va 2024-yil 06-fevraldagi 270/4-333-sonli xati.

1.8. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 2021-yil 19-iyulda berilgan 56279-T-sonli texnik sharti.

1.9. Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan 2024-yilda bajarilgan Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani,

Damariq MFY, Nukus ko‘chasi, 15B-uy manzilida joylashgan pastki qavatida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy binolarining yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish va batafsil (instrumental) texnik ko‘rik natijalari yuzasidan texnik hisoboti.

1.10. Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan 2024-yilda bajarilgan Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, A.Qaxxor ko‘chasi manzilida joylashgan “Yer osti avtoturargoh” ob’ekti yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish va batafsil (instrumental) texnik ko‘rik natijalari yuzasidan texnik hisoboti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta’minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog‘i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- aloqa tizimlari (SS, PS, APS va h.k);
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	TURAR-JOY BINOSI	12	1587.9	16482.5	42068.75	148
Boshqa	YER OSTI AVTOTURARGOH	2	2611.9	3436.8	16716.2	
Jami:			**4199.8**	**19919.3**	**58784.95**	**148**

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq – lyossimon tuproq, qum-tosh aralashmasi.

Tuproq cho‘kuvchanligi bo‘yicha toifasi – I tip.

Tuproqning seysmik toifasi – ikkinchi.

Yer osti suvlari yer sathidan 6.7-6.8 m chuqurlikda aniqlangan.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob’ekt Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Abdulla Qaxxor 6-tor 1-berk va Nukus ko‘chalarida joylashgan bo‘lib, hududda quyidagi bino va inshootlar qurilishi ko‘zda tutilgan:

- turar-joy binolari
- yer osti avtoturargoh

- bolalar maydonchasi va h.k.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Umumiy maydoni - 4751.1 m²

Qurilish maydoni - 1394.0 m²

Qoplamalar maydoni - 2536.8 m²

Ko‘kalamzor maydoni - 662.3 m²

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Turar-joy binosi 3 ta blokdan iborat bo‘lib, seysmik chok bilan bir-biridan ajratilgan.

1-blok – yerto‘lali , 12 qavatli, “G” shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 22.4x35.1m. Yerto‘la balandligi 3.5m, birinchi qavat baladligi 4.0m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Binoning qavatlarida quyidagi xonalar joylashgan:

- yerto‘lada – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- birinchi qavatda – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

2-blok – yerto‘lali , 12 qavatli, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 20.7x20.0m. Yerto‘la balandligi 3.5m, birinchi qavat baladligi 4.0m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Binoning qavatlarida quyidagi xonalar joylashgan:

- yerto‘lada – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- birinchi qavatda – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

3-blok – yerto‘lali , 12 qavatli, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 20.7x20.0m. Yerto‘la balandligi 3.5m, birinchi qavat baladligi 4.0m, yuqori qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Binoning qavatlarida quyidagi xonalar joylashgan:

- yerto‘lada – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- birinchi qavatda – tijorat maydonlari, zinapoya maydoni, lift maydoni va h.k.
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Turar-joy binosida jami – 148 ta xonadon joylashgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 1587.9 m²

Umumiy maydoni - 16482.5 m²

Qurilish hajmi - 42068.75 m^3.

Yer osti avtoturargoh – 2 qavatli, murakkab shaklda bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 31.5x77.6m. Qavatlar balandligi 3.0m (poldan shiftgacha).

Artoturargohga eni 4.5m va 5.0m bo‘lgan kirish/chiqish (rampa) ko‘zda tutilgan.

Avtoturargoh 94 ta avtomobilga mo‘ljallangan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni - 2611.9 m²

Umumiy maydoni - 3436.8 m²

Qurilish hajmi - 16716.2 m^3.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – “Ottochento” suvoq.

Poypesh – marmar tosh bilan qoplangan.

Xonadonlarni ichki pardozlash:

Ichki devorlar – suvoq, shpaklevka, suv emulsiya bilan bo‘yash.

Shift – gipsokarton, shpaklevka, suv emulsiya bilan bo‘yash..

Eshiklar – metall, MDF, PVX profil.

Oyna – PVX profil.

Vitrajlar – PVX profildan iborat.

Pol – keramik plitalar, lenoleum, beton.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – qattiqlik diafragmali monolitik temirbeton karkas.

Poydevori – qalinligi 900 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita.

Yerto‘la tashqi devorlari – qalinligi 400mm bo‘lgan monolit temirbeton.

Yuqori qavatlar tashqi devorlari - qalinligi 380mm bo‘lgan g‘ishtdan iborat.

Ichki devorlar – qalinligi 250mm va120mm bo‘lgan g‘ishtdan iborat.

Orayopmasi – yumaloq g‘ovakli yig‘ma temirbeton plita.

Lift shaxtasi - monolit temirbeton.

Zinapoya – monolit temirbeton.

Tom qismi – tekis.

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F4.3.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – S1.

3.6. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 80 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Turar-joy binosi tom qismida har birining quvvati 550 Vt bo‘lgan, 52 dona quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Yoritish tizimida energiya tejamkor svetodiodli chiroqlar foydalanilgan va h.k.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2024-yil 25-dekabrdagi 157656403-sonli xulosa).

- O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2025-yil 23-yanvardagi 01-02/14-3756-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi).

- “O‘zenergoinspeksiya” Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (2024-yil 11-dekabrdagi TSh-18-941-sonli xulosa).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, muhandislik tarmoqlari, texnologik yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Bundan tashqari, ishchi loyihaning muhandislik tarmoqlari bo‘limlari arxitektura yechimlari bo‘limi bilan muvofiqlashtirish talab etiladi.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati” ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Abdulla Qaxxor 6-tor 1-berk va Nukus ko‘chalarida Pastki qavatida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy binolari qurish” ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To‘rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Usmanov Kayrat Sharipbayevich, Yunusov Anvar Baxtiyarovich